



"O'SMIRLIK DAVRIGA XOS AGRESSIVLIKNI IJTIMOYIY – PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI" (MEHRIBONLIK UYI TARBIYALANUVCHILARI MISOLIDA)

Xamidova Fariza Shuxrat qizi
O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti
Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrası
stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya: Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida agressivlik xususiyatlarining o'ziga xosligini o'rganish.

Kalit So'zlar: Mehribonlik uyi, agressiya, yetimlik

Annotation: To study the specificity of aggressiveness characteristics in foster children of the orphanage.

Key Words: House of Mercy, aggression, orphanhood.

Аннотация: Будущее нашей страны, завтрашний день нашего народа, репутация нашей страны в мире зависят в первую очередь от того, какими людьми вырастут и войдут в жизнь наши дети. Мы никогда не должны забывать такой острый факт.

Ключевые Слова: Дом милосердия, агрессия, сиротство.

KIRISH

O'zbekiston mustaqillik sari dadil qadam tashlab borayotgan bir davrda barcha ichki muammolar bilan bir qatorda har xil sabablarga ko'ra mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalar ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishga ham keng yo'l ochildi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari shaxs xususiyatlari, individual psixologik xususiyatlarini tadqiq qilishda barcha mamlakatlar qatori respublikamizda ham qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, tarbiyalanuvchilar shaxs xususiyatlari va ijtimoiy psixologik xususiyatlari o'rganilgan.

O'zbekiston mustaqil deb e'lon qilingandan so'ng bolalar uylari ta'lim-tarbiya tizimiga mentalitetga xos xususiyatlarni kiritish, o'zbek tilini o'rgatish, ular ma'naviy hayoti mazmundorligini ta'minlashga doir keng qamrovli tadbirlar amalga oshirildi.

1991-1994 yillar davomida mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilar shaxs hislatlari, aqliy, ahloqiy xususiyatlari haqidagi ayrim masalalar O.Ochilova, A.V.Almatinskaya, Sh.Yuldoshev, V.Darkina, K.Oxunov, O.Jalilov, Muhayyo O'ktam qizi, R.Po'latova va boshqalar tomonidan jiddiy maqolalar chop ettirildi. hamkorlik faoliyatining bosqichlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, mexanizmlari, o'zaro ta'sir o'tkazish darajalari yuzasidan psixologiya fanlari doktori, professor E.G.G'oziyevning ilmiy rahbarligida B.E.O'tanov, N.B.Azimovlar nomzodlik ilmiy darajasi bilan bog'liq manografik tadqiqotlarni yakunlaganlar.

Tarbiyalanuvchilarda uchraydigan tajavuzkorlik, ishonchsizlik, mustaqillikning etishmasligi, o'zini chetga olish, beg'amlik va har qancha salbiy hislatlar ular xarakteridan



chuqur o`rin olgan. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari oilada tarbiyalanayotgan tengdoshlaridan ahloqiy bilimlarni egallashda ham keskin farqqilishini ta'kidlaydi. Tarbiyalanuvchilar faqatgina Mehribonlik uyida zaruriy hisoblangan ahloqiy me'yorlar bilan chegaralanib qolishgan. Bu esa kelajakda mustaqil oilaviy sharoitda bir muncha qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi muqarrarligini ta'kidlaydi.

O`M.Asqarovaning ta'kidlashicha, mehribonlik uyi uchun zarur bo`lgan pedagogik-didaktik-psixologik omillardan foydalanishning shakl va usullari maqsadli amalga oshirilsa, pedagog-tarbiyachilar ishlari tarbiyalanuvchilar ruhiga kirish, botiniy tuyg`ularni o`rganish va ularga samarali tarbiyaviy ta'sir etish mahoratlarini oshirgan holda yo`naltirilsa, Mehribonlik uyining pedagog-tarbiyachilari va rahbariyati bilan mahalla, otaliq tashkilot va korxonalarini hamda madaniy-ma'rifiy muassasalar o`rtasidagi yaqin aloqalar orqali muttasil tashkil qilinsa samarali natijalarga erishiladi.

Va nihoyat, o`smirlar milliy g`ururini tarbiyalash asosida ularni ijtimoiy hayotga, oilaviy turmushga, jamiyatning faol ishtirokchisi va mustaqillikni, huquqiy fuqarolik jamiyatini mustahkamlash hamda rivojlantirishga xizmat qiladigan barkamol inson qilib tarbiyalash birinchi navbatdagi vazifadir.

Psixolog, E.A.A'zamxo'jayevaning fikricha, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilardagi deprevatsiya holati muomala jarayonidagi asosiy qiyinchiliklarning sababchisi hisoblanadi. Tarbiyalanuvchilardagi aqliy jarayonlarning saqlanganligi – o`zini o`zi namoyon etish layoqati sifatida shakllangan attraktsiyaning yuqori darajasini ko`rsatadi. Olima attraktsiya va o`z-o`zini qabul qilish darajasining susayishi ular hayot tarzining o`ziga xosligiga bog`liq bo`lib, o`zgalar bilan muomalaga kirishishiga to`sqinlik qiladi. Muomala maromining dinamikasi ehtiyojij, mohiyatij, hissiy, irodaviy, kognitiv, regulyativ va shaxslilik sohalariga bog`liq; O`quv materiallari, umumiy axborot yangiligi qancha yuqori bo`lsa, tarbiyachi-pedagog bilan tarbiyalanuvchi o`rtasidagi muomala muhiti shunchalik iliq, ayniylik darajasi barqaror va puxta bo`ladi; bilimni o`zlashtirish sifati, shaxslararo fikr almashish istagi, mustaqil fikrlash xohishishunga mutanosib ravishda ijobiy o`zgarishlarga yuz tutadi deb hisoblaydi.

XULOSA

Muloqotda tajribaning yo`qligi va noto'g'ri o`zini talqin qilish tufayli ular atrofdagilarga agressiv va negative munosabatda bo`ladilar. Muvozanatlashmagan emotsional holati esa shaxsiy munosabatlardagi affektiv buzilishlarga olib keladi. Deprivatsiya sharoitida bo`lgan bolalar uchun do'stlikning ahamiyati zaif ko`rinadi, ularda vaziyatli harakterga ega bo`lgan diada va triadalar mavjud bo`lmaydi. Kattalarga nisbatan munosabat ularning bolaning hayotidagi samaradorligi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni. 23-noyabr 2007-yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)
2. O'zbekiston Respublikasi "Vasiylik va homiylik" to'g'risidagi qonuni 02.01.2014 yil



3. O'zbekiston Respublikasi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi" to'g'risidagi qonuni 29.09.2010 yil
4. O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlarining kafolatlari" to'g'risidagi qonuni 07.01.2008 yil
5. "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida 09.08.2021 yildagi PQ-5216-son
6. "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari" to'g'risida 09.08.2021 yildagi PQ -5215-son
7. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. – Москва, «Просвещение», 1968-464 б.
8. Брутман Д.И. и др. Раннее социальное сиротство(медико-социально-психологические проблемы). – М.:Изд.экс.комплекса социальной помощи детям и подросткам Мос.деп. образования, 1994. – 182 б.
9. Ганжа, С. Ю. Социально-психологическая адаптация школьников с нарушениями соматического и нервно-психического здоровья: Автореф. дис... канд. псих, наук. - Ставрополь. - 2000. - 20 с.